

BIOLOGIK TURLARINING PAYDO BO'LISHI**Teshaboyev Tolib***Navoiy innovatsiyalar universiteti**Biologiya ta'lim yo'nalishi**2- Kurs talabasi.*

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi Tur tushunchasini tarixiy kontseptual rivojlanishi. Tur tarifi. Tur mezonlari. Morfologik farqlanishi. Fiziologik va biokimyaviy farqlanishi. Geografik farqlanishi. Genetik farqlanish turning asosiy mezoni sifatida. Turning yaxlit bir butunligi, diskretligi. Agarn va partenogenetik organizmlarga tur ta'rifini qo'llash xususiyati. Tur strukturasi va tarkibi o'rganildi.

Kalit so'zlar: tur, tur mezoni, morfologik mezon, fiziologik mezon, biokimyoviy mezon, geografik mezon, genetik mezon, ekologik mezon, etologik mezon.

KIRISH

Tur hosil bo'lishi – ajdod turning bir necha yangi guruh, par (liniyalar)ga ajralishi orqali yangi turlar hosil bo'lishi jarayoni. Tur hosil bo'lishib. muammosini Ch. Darvin (1859) o'zining divergensiya konsepsiyasida uzilkesil hal qilib bergan. Uning ko'rsatishicha, divergensiya tur ichida boradigan kurash sharoitida tabiiy tanlanish tufayli dastlabki formadan eng ko'p farq qiladigan belgiga ega bo'lgan individlarning saqlanib qolishi orqali sodir bo'ladi. Zamonaviy tasavvurlarga qaraganda, Tur hosil bo'lishib. dizruptiv tanlanish nazorati ostida boradi; buning uchun tur ichida keskin raqobat bo'lishi shart emas. Tur hosil bo'lishib.ning allopatrik va simpatrik yo'llari bor. Allopatrik Tur hosil bo'lishib. muayyan tur populyatsiyalarining hududiy alohidalanishi bilan bog'liq. Tur arealining har xil qismida tarqalgan populyatsiyalar turli yo'nalishlardagi tabiiy tanlanish ta'siriga uchraydi; geografik izolyatsiya esa bunday alohidalangan populyatsiyalar o'rtasidagi genetik informatsiya almashinuviga to'sqinlik qiladi. Astasekin bunday populyatsiyalarda mikroevolyutsiya jarayoniga olib keluvchi genetik divergensiya sodir bo'ladi va populyatsiya individlari dastlabki tur individlaridan aniq farq qiladigan belgilarga ega bo'lib qoladi. Agar bu belgilar ajdod turning boshqa populyatsiyalari bilan chatishmasligiga olib keladigan bo'lsa, u holda hosil bo'lgan forma yangi turga aylanadi. Tur o'z arealidan tashqarida tarqaladigan bo'lsa, yangi hududda hali tabiiy tanlanish ta'sirida muvozanat holatiga kelmagan populyatsiyaning yashab krlishiga olib kelishi mumkin. Bunday populyatsiya tasodifan tanlangan individlar yig'indisidan iborat bo'ladigan yangi sharoitga moslanishga imkon beradigan tabiiy tanlanish ta'sirida genotipik jihatdan juda tez qayta qurilish („genetik revolyutsiya“)ga sabab bo'lishi mumkin. Kam sonli

populyatsiyalarning hududiy alohidalanishida mikroevolyutsion jarayonlarda genlar dreyfi asosiy ahamiyatga ega.¹

Simpatrik Tur hosil bo'lishib. populyatsiyada birbiridan farq qiladigan bir necha formalarning bo'lishi va ularning bitta umumiy hududda tarqalishi (polimorfizm) asosida sodir bo'ladi. Poliploidizatsiya orqali o'simliklarda (ba'zan hayvonlarda) yangi turlar paydo bo'lishi simpatrik Tur hosil bo'lishib. ning o'ziga xos usuli hisoblanadi. Bunda vujudga kelgan yangi turlar avval boshdan otaona populyatsiyadan genetik alohidalangan bo'ladi. Agar ular jinssiz ko'payish yoki partenogenez xususiyatiga ega bo'lib, ajdod forma bilan chatishmaydigan bo'lsa, yangi tur sifatida saqlanib qoladi.

Ba'zan „Tur hosil bo'lishib.“ terminidan keng ma'noda bir turning astasekin ikkinchi turga aylanishi (turlar sonining oshmasdan filetik Tur hosil bo'lishib.), shuningdek, duragaylash orkali yangi tur hosil bo'lishi (to'rsimon evolyutsiya) jarayonlarini tushuntirishda ham foydalaniladi. Tur hosil bo'lishib. ning bir qancha muammolari uzilkesil hal etilmagan.

Bioxilmaxillik turg'un tushuncha emas. U tabiat barcha biologik qismlarining o'zaro bog'liqligi va bir-birini taqozo etishini tan oladi. Ko'pincha mazkur tushunchaning uch darajasi farqlanadi: turlarning biologik rang-barangligi barcha o'simliklar va hayvonlarning, shu jumladan turli bakteriyalar va mikroorganizmlarning rang-barangligi; genetik rang-baranglik turlardagi genetik materialning rang-barangligi va ularning o'rtasidagi Bioxilmaxillik; ekologik tizimlarning rang-barangligi – ekologik tizimlarning boyligi (masalan, tog' o'rmonlari, cho'llar yoki savannalar, sahrolar va dengizlar va h.k.). Bu uch daraja jamuljam holda Bioxilmaxillikni tashkil etadi. Shu sababli mazkur darajalarning har birini asrash umuman Bioxilmaxillikni asrash uchun muhimdir.

O'zbekistonning umumiy biologik xilma-xilligi 27000 dan ortiq turni tashkil etadi. Mamlakatimizning o'simlik dunyosida yuksak yoki oliy o'simlik turlari alohida ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasi hududida 4500 ga yaqin yuksak o'simlik turlari va 2000 dan ortiq zamburug' turlari uchraydi. Ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj kamyob va relik turlar ham mavjud bo'lib, ularning soni 300 dan oshadi. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga 314 turdagi o'simlik turi kiritilgan.

Har yili respublikada yovvoyi holda o'sadigan dorivor, oziq-ovqat va texnik o'simliklarning 65 turiga yaqini yetishtiriladi. Eng ko'p miqdordagi hosil quyidagi turlarga to'g'ri keladi: qizilmiya, kovrak, kovul, qo'ziqorin va na'matak.

O'zbekiston faunasida umurtqali hayvonlarning 706 turi (sut emizuvchilar – 107, qushlar – 460, sudralib yuruvchilar – 64, amfibiyalar – 3 va baliqlar – 76) mavjud, umurtqasiz hayvon turlari esa 15 mingdan ortiq. So'nggi o'n yil davomida tabiatdan foydalanishning kuchayishi oqibatida, O'zbekistondagi ko'plab hayvon turlari kuchli

¹ G'ofurov A.T, Fayzullaev S.S. "Genetika va evolyutsion ta'limot" Toshkent 2013y.

antropogen ta'sir ostida qolib, ularning yashash joylari va soni qisqardi, ba'zilari esa butunlay yo'q bo'lib ketdi.

Muhofazaga muhtoj va yo'qolib borayotgan hayvon turlaridan O'zbekistonning Qizil kitobiga kenja turlar bilan birgalikda sutemizuvchilarning 30, qushlarning 52 turi, sudralib yuruvchilarning 21 turi, baliqlarning 18 turi, halqasimon chuvalchanglarning 3 turi, mollyuskalarning 15 turi va bo'g'imoyoqlilarning 67 turi kiritilgan.

Davlat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining bioxilma-xillik sohasidagi faoliyati asosan tabiiy majmualar, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish va nazorat qilish, sohaga doir chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish hamda amalga oshirish, bioxilma-xillikni o'rganish va muhofaza qilish sohasidagi xalqaro aloqalarni rivojlantirish hamda boshqalardan iboratdir.²

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tabiiy tanlanish - organizmlar evolyutsiyasining asosiy harakatlantiruvchi omili. Tabiiy tanlanish haqidagi ta'limoti J.Hechkim. tomonidan yaratilgan. Olimning fikricha, Tabiiy tanlanish — yashash uchun kurashning natijasi bo'lib, foydali individual o'zgarishlarga ega bo'lgan organizmlarning yashab, nasl qoldirishi, foydasiz o'zgarishlarga ega bo'lgan organizmlarning esa qirilib ketishi, ya'ni moslashgan formalarning yashab qolishi va moslashmagan formalarning nobud bo'lishidan iborat biologik jarayon. Irsiy o'zgaruvchanlik Tabiiy tanlanishning ta'siri uchun zarur zamin hisoblanadi. Tabiiy tanlanishning bevosita natijasi esa organizmlarning tashqi muxitning muayyan sharoitiga moslanishi mukammallashishidan iborat. Tabiiy tanlanish tufayli organizmlar xilmaxilligi orta boradi; progressiv evolyutsiya jarayonida organizmlar tuzilishi ham mukammallashib boradi; muhit sharoitlariga yetarli darajada moslasha olmagan turlar esa nobud bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'ofurov A.T, Fayzullaev S.S. “Genetika va evolyutsion ta'limot” Toshkent 2013y.
2. G'ofurov A.T., Fayzullaev S.S. “Genetika” Toshkent, “Tafakkur”,2010y.
3. G'ofurov A.T. “Evolutsion ta'limot” Toshkent “O'qituvchi”, 2009 y.
4. A.T.G'ofurov, S.S.Fayzullaev, U.E.Raxmatov “Genetikadan masala va mashqlar yechish” Toshkent - TDPU 2014y.
5. Tara Rodden Rjbinson Fssistant Professor (Reseach), Oregon State University “Genetics For Dummies” Coyright 2005 by Wiley Publishing, Inc., Indianapolis, Indiana

² G'ofurov A.T. “Evolutsion ta'limot” Toshkent “O'qituvchi”, 2009 y.